



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 10-fevral

62-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-15-son Farmoni ijrosi haqida”gi 53-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-15-son Farmoni hamda Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 53-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2025-yil 5-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 30-yanvardagi PF-15-son Farmoni ijrosi haqida”gi 53-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur 2025-yil 30 yanvardagi PF-15-sonli Farmoni bilan:

Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda Ipakchilik qo‘mitasi) tugatilganligi;

QDCFB Ipakchilik qo‘mitasining: yaylovlarni boshqarishga oid vazifa va funksiyalari Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga (keyingi o‘rinlarda -Veterinariya qo‘mitasi);

pilla yetishtirish va ipakchilik sohasini rivojlantirishga oid vazifa va funksiyalari Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda "O‘zbekipaksanoat" uyushmasiga;

Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Buxoro cho‘lyaylov ozuqabop o‘simliklar urug‘chiligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi Veterinariya qo‘mitasi tizimiga;

Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti va O‘zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimiga o‘tkazilganligi;

Veterinariya qo‘mitasi raisining chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi kiritilganligi va quyidagilar:

yaylov yerlaridan samarali va maqsadli foydalanish, ularni muhofaza qilish, o‘simliklar tabiiy plantatsiyalarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish;

yaylovlarda o'simliklar urug'chiligini rivojlantirish, yaylov yerlarini ijaraga berishni tashkil etish, shartnomaviy munosabatlarni monitoring qilish;

qorako'l zotining genofondini saqlash, takror ko'paytirish va takomillashtirish, seleksiya-naslchilik rejalarini amaliyotga tatbiq etish hamda infratuzilmalarni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish uning asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

Belgilanishicha: Veterinariya qo'mitasi Ipakchilik qo'mitasining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi, bundan pilla yetishtirish va ipakchilik sohasini rivojlantirishga oid huquqlar, majburiyatlar va shartnomalar mustasno;

yangi kiritilayotgan Veterinariya qo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimi, Yaylov xo'jaligini rivojlantirish boshqarmasi va hududiy yaylov xo'jaliklarining shtat birliklari tugatilayotgan Ipakchilik qo'mitasining 26 ta shtat birligi hamda Veterinariya qo'mitasining mavjud shtat birliklari doirasida shakllantirilishi;

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi, 16-uy manzilidagi bino Veterinariya qo'mitasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o'tkazilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (B.Pazilov), Qishloq xo'jaligi boshqarmasi (N.Xudoyberdiyev) hamda tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil oxiriga qadar yaylov yerlarini xatlovdan o'tkazib, ularning amaldagi va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan maydoni o'zaro muvofiq bo'lishini ta'minlash topshirilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-15-son Farmoni bilan belgilab qo'yilishicha:

a) hududiy yaylov xo'jaliklari yaylov yerlarini boshqarish va ulardan foydalanish, o'zlariga doimiy foydalanish huquqi bilan berilgan yaylovlarni ijaraga berish sohasida o'rmon xo'jaliklari uchun belgilangan huquq va majburiyatlardan foydalanadi;

b) yaylovlar chorvachilik va boshqa xo'jaliklarga Respublika komissiyasining qaroriga asosan to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilishi mumkin, bunda:

talabgor mazkur Farmon kuchga kirgan sanada yoki 2020-yil 1-sentabr holatida tegishli yaylov yeriga nisbatan ijara, doimiy foydalanish yoki doimiy egalik qilish huquqiga ega bo'lishi lozim;

talabgor tegishli yaylovdan uzoq yillar samarali va oqilona foydalangan bo'lishi, mazkur holat joyiga chiqqan holda tuziladigan dalolatnoma bilan tasdiqlanishi kerak;

Respublika komissiyasining mazkur masaladagi barcha qarorlari 2025-yil oxirigacha bo'lgan muddatda qabul qilinishi va jamoatchilik tanishishi uchun e'lon qilinishi kerak;

qolgan yaylovlar jismoniy va yuridik shaxslarga o'rmon fondi yerlari uchun belgilangan tartibda "E-auksion" savdo platformasida elektron onlayn auksion savdolari orqali yoki Veterinariya qo'mitasi bilan qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladigan davlat-xususiy sheriklik shartnomalariga muvofiq ijaraga beriladi;

d) yaylovlar qirq to'qqiz yilgacha ijaraga beriladi;

e) ijara shartnomalari Respublika komissiyasining qarori yoki elektron onlayn auksion savdolari natijalari to'g'risidagi bayonnomaga asosan hududiy yaylov xo'jaliklari bilan tuziladi va kadastr organlarida o'rmon fondi yerlari uchun belgilangantartibda ro'yxatdan o'tkaziladi;

f) yaylov yerlari uchun ijara to'lovlari hamda elektron onlayn auksion savdolari natijalariga ko'ra yaylovlarga ijara huquqini olish uchun to'lanadigan mablag'lar operator xarajatlari chegirib tashlangan holda Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg'armasiga o'tkazilib, uning alohida hisobi yuritiladi;

g) hududiy yaylov xo'jaliklarining doimiy foydalanishdagi yaylov yer maydonlari soliq solinadigan bazaga kiritilmaydi.

5. Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Xakimov), Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi (T.Mirzayev), Kadastr agentligining tuman bo'limi (A.Shodmonov), "Agropilla" MChJ (A.Bozorov) hamda tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-15-son Farmoni talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari–tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i I.Ergashev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov